

XALQARO HUQUQDA QOCHOQLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING MAQOMINI BELGILOVCHI ASOSIY PRINSIPLAR

Rayimjonov Ilhomjon Imomali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro huquq va inson huquqlari mutaxassisligi magistranti.

rayimjonovilxomjon2001@gmail.com

[Telefon raqami: +998 90 585 15 03](tel:+998905851503)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15651971>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro huquqda qochoqlik tushunchasining nazariy va huquqiy asoslari, shuningdek, ushbu maqomni belgilovchi asosiy prinsiplar tahlil etiladi. Qochoq tushunchasining tarixiy shakllanishi, xalqaro normalar, xususan, 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya va 1967-yilgi Protokolning mazmuni hamda UNHCR tomonidan berilgan ta'riflar asosida qochoqlik maqomining huquqiy elementlari aniqlanadi. Mavzuga oid zamonaviy yondashuvlar, xalqaro olimlarning ilmiy mulohazalari va xalqaro huquq doirasida qochoq tushunchasi hamda uning maqomini aniqlashda qo'llanilayotgan prinsiplarning amaliy va konseptual ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Xalqaro huquq, qochoqlik maqomi, ta'qib, boshpana huquqi, 1951-yilgi Konvensiya, UNHCR, inson huquqlari, migratsiya, huquqiy maqom, ijtimoiy xavfsizlik, prinsiplar.

Annotation. This article analyzes the theoretical and legal foundations of the concept of refugee status in international law, as well as the key principles that define this status. It examines the historical evolution of the notion of "refugee" and identifies the legal elements of refugee status based on international norms, particularly the 1951 Convention Relating to the Status of Refugees, the 1967 Protocol, and definitions provided by UNHCR. The article also explores modern approaches to the subject, scholarly opinions of international legal experts, and the practical and conceptual significance of the principles applied in defining refugee status within the framework of international law.

Keywords: international law, refugee status, persecution, right to asylum, 1951 Convention, UNHCR, human rights, migration, legal status, social security, principles.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и правовые основы понятия беженства в международном праве, а также ключевые принципы, определяющие этот статус. Анализируется историческое формирование понятия «беженец», выявляются правовые элементы статуса беженца на основе международных норм, в частности, Конвенции о статусе беженцев 1951 года, Протокола 1967 года и определений, представленных УВКБ ООН. Также освещаются современные подходы к теме, научные мнения международных правоведов и практическое и концептуальное значение применяемых принципов при определении статуса беженца в рамках международного права.

Ключевые слова: международное право, статус беженца, преследование, право на убежище, Конвенция 1951 года, УВКБ ООН, права человека, миграция, правовой статус, социальная защита, принципы.

Kirish

Qochoqlik — bugungi globallashgan dunyoda inson huquqlari, davlatlar suvereniteti va xalqaro xavfsizlikning kesishgan nuqtasida turgan murakkab va dolzarb masalalardan biridir. XX

asr mobaynida yuz bergan urushlar, qurolli mojarolar, etnik va diniy ta'qiblar natijasida millionlab insonlar o'z vatanini tark etishga majbur bo'lgan. Bunday holatlar xalqaro hamjamiyatni qochoqlar maqomini aniqlash va ularni himoya qilishga qaratilgan xalqaro-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga undadi.

Xalqaro huquqda "qochoq" tushunchasi huquqiy jihatdan aniqlangan bo'lib, u 1951-yilgi "Qochoqlar maqomi to'g'risidagi" Konvensiya va 1967-yildagi Protokolda batafsil bayon etilgan. Mazkur hujjatlar asosida, irq, din, millat, siyosiy e'tiqod yoki muayyan ijtimoiy qatlamga mansublik sababli ta'qibdan qo'rqib o'z davlatidan tashqarida bo'lgan va u yerda himoyadan mahrum bo'lgan shaxslar qochoq sifatida tan olinadi.

Zamonaviy xalqaro huquqshunoslikda qochoq maqomini belgilashda bir necha muhim tamoyillar ajratib ko'rsatiladi. Jumladan, ta'qib tahdidi, asosli qo'rquv, Konvensiyada qayd etilgan sabablar, o'z mamlakati hududidan tashqarida bo'lish va davlat himoyasidan foydalana olmaslik shartlari asosiy elementlar sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, turli olimlarning ilmiy qarashlari, UNHCRning tavsiyalari hamda xalqaro sud qarorlari mazkur prinsiplarning mazmunini aniqlashtiradi va amaliyotga moslashtiradi.

Maqolada qochoqlik tushunchasi nafaqat xalqaro huquqiy hujjatlar asosida, balki zamonaviy ijtimoiy-siyosiy holatlar kontekstida ham yoritiladi. Ukraina, Suriya, Falastin kabi davlatlarda yuzaga kelgan mojarolar, iqlim o'zgarishi sababli joyidan ko'chishga majbur bo'lgan insonlar holati, shuningdek, iqtisodiy, ekologik yoki ichki ko'chirilgan shaxslar bilan bog'liq migratsion holatlar qochoqlikdan huquqiy jihatdan farqlanishi lozim bo'lgan tushunchalar sifatida baholanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — xalqaro huquqda qochoqlar tushunchasi va maqomini belgilovchi asosiy prinsiplarga ilmiy yondashuv asosida aniqlik kiritish, mavjud huquqiy manbalar, akademik qarashlar va xalqaro amaliyotni umumlashtirgan holda tahliliy asosda yoritishdan iboratdir.

Ilmiy-nazariy qism

Qochoqlik masalasi bugungi global dunyoda inson huquqlarining himoyasi, davlat suvereniteti va xalqaro xavfsizlik bilan bevosita bog'liq muhim ijtimoiy-huquqiy muammolardan biridir. XX asrda yuz bergan ikki jahon urushi, mahalliy qurolli mojarolar, irqiy va diniy ta'qiblar natijasida millionlab odamlar o'z vatanlarini tark etishga majbur bo'lgan. Ushbu holatlar xalqaro hamjamiyatni qochoqlarning maqomi va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy asoslarni ishlab chiqishga undadi. Shu bois, "qochoq" tushunchasi xalqaro huquqda alohida kategoriyaga ega bo'lib, u xalqaro konvensiyalar, regional kelishuvlar va davlatlarning milliy qonunchiliklarida o'z aksini topgan.

Ukrainada, Falastindagi urushlar zaminida Britaniya va boshqa Yevropa davlatlariga qochib borayotgan shaxslarni, Suriya va Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik sabab o'z mamalakatining huquqiy himoyasidan foydalana olmayotgan shaxslarni haqiqiy "qochoqlar" deb atash mumkin.

Xalqaro huquqda qochoq maqomi, birinchi navbatda, 1951-yilgi "Qochoqlar maqomi to'g'risida"gi Konvensiya va uning 1967-yildagi Protokoli asosida belgilanadi. Mazkur Konvensiyaning 1-moddasiga ko'ra:

Qochoq — “irq, din, millat, muayyan ijtimoiy qatlamga mansublik yoki siyosiy e’tiqodi sababli ta’qibdan qo’rqib, o’z fuqaroligiga ega bo’lgan davlat hududidan tashqarida bo’lgan va o’z davlatining himoyasidan foydalanolmaydigan yoki bu himoyani istamaydigan shaxs” sifatida belgilanadi¹.

Shu bilan birga, UNHCR tomonidan tayyorlangan qo’llanmalarda xalqaro huquqda qochoqlar tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Qochoq – u kelib chiqqan mamlakatda siyosiy ta’qiblar, urush yoki qurolli mojarolar, jamoat tartibsizliklari natijasida huquqlari va shaxsiy hayot daxlsizligi xavf ostida qolgan va o’z mamlakati tashqarisida bo’lib turgan shaxslardir²”

Shuningdek, qochoq tushunchasiga ta’rif berishda xalqaro huquqdagi mashhur olimlar ilmiy munozaralarini va konsrptual qarashlarini ham e’tiborga olish va tahlil qilish zarur. Chunki, aynan ilmiy qarashlar huquq normalarining shakllanishida doimiy ahamiyat kasb etgan.

Xalqaro huquqda qochoqlar huquqlarini himoya qilish bo’yicha minglab olimlar izlanish olib bormoqda. Shulardan biri Katerina Jenson bo’lib u o’zining ilmiy asarlari qochoqlar sifatida taqib yoki cheklovlar natijasida o’z mamlakatining himoyasidan foydalana olmayotgan shaxslar tushunilishini ta’kidlagan. U Brazilyada qochoq sifatida yashayotgan shaxslar bilan suhbatlar o’tkazib bu fikrni ilmiy va amaliy misollar bilan isbotlab bergan³.

Yana bir xalqaro huquq sohasidagi tadqiqotchi Sonia Lenegan tomonidan 2024-yilda tahrirlangan maqolada qochoq ta’rifini quyidagi tarkibiy qismlarga bo’lish mumkinligini keltirib o’tgan:

1) Xayoliy emas, balki asosli qo’rquvga ega bo’lish; 2) Yomon muomala ham quvg’in qilish bilan barobarligi; 3) Ta’qib sabablari irq, din, millat, siyosiy fikr yoki muayyan ijtimoiy qatlamga mansublik bilan bog’liq bo’lishi; 4) O’z mamlakatidan tashqarida bo’lish; 5) O’z mamlakatida himoyaga ega bo’lmaslik yoki ushbu himoyani xohlamaslik⁴.

Xalqaro huquq sohasidagi milliy olimlarimizdan G. Yuldasheva, N. Gafurova tomonidan 2023-yilda chop etilgan “Inson huquqlari” nomli darslikda ular 1950-yillardagi Afrikada yuz bergan qurolli mojarolar sonining oshishi va qurbonlar hajmining ko’payishi sababali qochoqlar masalasi yuzasidan mintaqaviy shartnoma ishlab chiqish va qabul qilishga ehtiyoj tug’ilganligini, natijada 1974-yilda ABTning Qochoqlar maqomining aniq jihatlari bo’yicha konvensiyasi kuchga kirganligini ta’kidlaydi. Ushbu konvensiyaning 1-modda 2-bandiga ko’ra, “Qochoq tushunchasi tashqi agressiya, okkupatsiya, xorijiy hukmronlik yoki voqelik natijasida o’zining odatiy yashash joyini o’zgartirishga va o’zining kelib chiqishi mansublik yoki fuqaroviy bog’liqlikda bo’lgan mamlakatidan tashqarida boshpana izlashga majbur bo’lgan shaxslarga nisbatan qo’llaniladi”⁵.

Shuningdek, yuqorida nomlari keltirilgan olimlar va TDYUning boshqa mualliflar jamoasi tomonidan chop etilgan 2018-yilgi Xalqaro huquq darsligida qochoqlar tushunchasi xalqaro huquqda ilk bor Birinchi Jahon urushi davrida paydo bo’lganligini ta’kidlanib, ushbu atama faqatgina harbiy harakatlar sababli o’z mamlakatlarini tark etgan jismoniy shaxslar nisbatan qo’llanilishi ta’kidlab o’tilgan. Xususan, 1926-yilda rus va arman millatiga mansub

¹ <https://www.unhcr.org/media/1951-refugee-convention-and-1967-protocol-relating-status-refugees>

² <https://www.unhcr.org/sites/default/files/legacy-pdf/5aa290937.pdf> (The refugee concept under international law Global compact for safe, orderly and regular migration (New York, 12-15 March 2018))

³ <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/1536504221997861>

⁴ <https://freemovement.org.uk/what-is-the-legal-meaning-of-refugee/>

⁵ <https://drive.google.com/file/d/1Cy88THc6qq02JiK5yLgYKITHQr12fyPc/view> Inson huquqlari – DARSILIK. G. Yuldasheva, N. Gafurova.: Toshkent - 2023

qochoqlarga shaxsni tasdiqlovchi hujjat berish bo'yicha Bitimda qochoqlar deb aniq kelib chiqish ildiziga ega bo'lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan shaxslarga aytilgan. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng 1948-yilning 20-avgustida Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot tuzildi. Ushbu tashkilotning asosiy vazifasi barcha qochoq maqomiga ega bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatish hisoblangan. 1951-yilda ushbu tashkilot BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy Komissarining Boshqarmasi deb o'zgartirildi.

Tasodifiy suhbatlarda yoki ommaviy axborot vositalarida "qochoq" so'zi ko'pincha fuqarolar urushi, ofat, ocharchilik yoki mojarolardan qochgan odamlarga nisbatan qo'llaniladi. Ularni qochoqlar deb atashning hech qanday yomon joyi yo'q, lekin ular Qochoqlar to'g'risidagi konvensiyadagi qochoqning qonuniy ta'rifiga mos kelishi shart emas. Hatto fuqarolar urushi qurbonlari masalan, agar ular mojaroda hech bir tomon nishoniga aylanmagan, balki umumiy xavfsizlik vaziyatidan qochib ketgan deb hisoblansa ham har doim ham qochoq maqomiga ega bo'lavermaydi.

Shuningdek, qochoqlikni boshqa migratsion holatlardan, jumladan, iqtisodiy migrantlar, ichki ko'chirilgan shaxslar yoki ekologik migratsiya bilan aralashtirmaslik lozim. Qochoqlik xalqaro huquqiy maqomni anglatadi va shaxsga maxsus huquqiy himoya beradi. Masalan, ichki ko'chirilgan shaxslar (IDPs) — o'z davlatining hududidan chiqmagan bo'lib, xalqaro huquqda qochoq maqomiga ega bo'lmaydilar.

Shu sababli, bugungi kunda iqlim o'zgarishi natijasida o'z joyini tark etgan shaxslar xalqaro huquqda **rasmiy "qochoq" maqomiga ega emas**, va bu ularning himoyasini murakkablashtiradi. Bu muammo "huquqiy vakuum" deb nomlanadi va inson huquqlari nuqtai nazaridan jiddiy tahdid tug'diradi.

Boshpana huquqi — xalqaro huquqning eng qadimiy tamoyillaridan biri bo'lib, u insonni siyosiy, etnik, diniy, ijtimoiy sabablarga ko'ra ta'qibdan himoya qilishni nazarda tutadi. Bu prinsip 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining** 14-moddasida quyidagicha aks etgan:

"Har bir inson ta'qibdan qochish va boshqa mamlakatlarda boshpana izlash hamda undan foydalanish huquqiga ega."

Bu tamoyil xalqaro-huquqiy jihatdan majburiy bo'lmasada, u keyinchalik boshqa majburiy hujjatlarda takrorlangan va rivojlantirilgan. 1951-yilgi **Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyada** bu prinsip aniq aniqlik bilan qayd etilib, "qochoq" atamasiga quyidagi asosiy elementlar kiritilgan:

- Ob'ektiv xavf mavjudligi (ta'qib tahdidi);
- Mamlakat hududidan chiqib ketish;
- Himoya izlash niyati.

Huquqshunos **Guy S. Goodwin-Gill** ushbu prinsipga yondashib shunday ta'kidlaydi:

"Boshpana — bu faqat siyosiy iroda emas, balki xalqaro jamoatchilikning inson sha'ni va xavfsizligiga hurmatini aks ettiruvchi konstitutsiyaviy ehtiyojdir⁶"

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish va xalqaro huquqda qochoqlarga nisbatan berilgan qonuniy ta'riflardan kelib chiqqan holda qochoqlik maqomini belgilovchi quyidagi 5 asosiy prinsiplarni ajratib olamiz:

⁶ <https://global.oup.com/booksites/content/9780199207633/resources/annexe2> G.S. Goodwin-Gill, *The Refugee in International Law*, 3rd edition, 2007)

1. Ta'qib (Persecution)

Huquqiy doktrinada “ta'qib” qochoqlik maqomini asoslaydigan markaziy elementlardan biri hisoblanadi. Ammo bu tushuncha xalqaro huquqda qat'iy ta'riflanmagan. Shu sababli, unga turli huquqiy manbalar, xalqaro sud amaliyoti va BMT Qochoqlar Oliy Komissarligining (UNHCR) talqinlari asosida mazmun beriladi. UNHCRning 2002-yilgi yo'riqnomalarida ta'qib quyidagi mezonlar asosida baholanadi: (1) *inson huquqlari jiddiy buzilishi*; (2) *takroriy yoki tizimli tus*; (3) *jismoniy, ruhiy, ijtimoiy zarar yetkazilishi*.

Ta'qib faqat davlat tomonidan emas, balki davlat nazorati ostidagi guruhlar, qurolli harakatlar, ijtimoiy guruhlar, hatto oilaviy bosim orqali ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ayollarga nisbatan majburiy nikoh, genderga asoslangan zo'ravonlik yoki ba'zi jamiyat vakillariga nisbatan tahdidlar — ularning barchasi xalqaro miqyosda ta'qib sifatida tan olinmoqda.

Yana bir muhim holat — ayrim holatlarda iqtisodiy bosim ham ta'qib shaklida ko'rilishi mumkin. Masalan, diniy e'tiqod sababli shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar cheklansa, bu ham ta'qib darajasiga yetishi mumkin. Bu holat Kanada Federal Sudi (Singh v. Minister of Employment and Immigration) yoki Yevropa Ittifoqi Sudi (Y.A. and Others v. Germany) qarorlarida keng talqin qilingan.

2. Konvensiyaviy sabablar (Convention Reasons)

Qochoqlik huquqining ajralmas sharti bu — ta'qibning sababi Konvensiyada belgilangan 5 asosdan biriga bog'liq bo'lishidir. Xalqaro huquqda bu sabablar **diskriminatsion asosli ta'qib** bo'lishi zarur degan talqinda qabul qilingan.

Irq

Irqi asosda ta'qib, asosan, etnik guruhga mansublik asosida sodir bo'ladi. Bu holat Janubiy Afrika Respublikasidagi aparteid rejimi yoki Myanmada rohinga musulmonlariga nisbatan ta'qiblar misolida ko'riladi.

Din

Diniy e'tiqod uchun jazolash, diniy libosni taqiqlash, ibodat qilish imkonini cheklash — ularning barchasi din asosidagi ta'qib hisoblanadi. UNHCR diniy e'tiqod faqat ichki ishonch emas, balki uni amalda bajarish huquqini ham qamrab olishini ta'kidlaydi.

Millat

Millat bu yerda “fuqarolik” emas, balki madaniy, etnik yoki tarixiy birlikni anglatadi. Masalan, kurdarga nisbatan ayrim mintaqalardagi siyosiy bosimlar milliy asosdagi ta'qib sifatida ko'rilgan.

Muayyan ijtimoiy guruhga mansublik

Bu sabab eng ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan. Ko'plab davlatlar bu toifani ancha tor talqin qilgan bo'lsa, xalqaro huquqshunoslar va UNHCR uni kengroq talqin qilish tarafdori. Gender, jinsiy orientatsiya, oilaviy nasab, nogironlik — bu guruhlar zamonaviy sud qarorlarida ijtimoiy guruh deb tan olingan.

Siyosiy qarashlar

Bu nafaqat faol siyosiy ishtirokni, balki mavjud rejimga nisbatan tanqidiy fikr bildirganlikni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, mustaqil jurnalistlar, faollar yoki norozilik namoyishlarida qatnashgan shaxslar ham bu toifaga kiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'qibning sababi ushbu beshlikdan tashqarida bo'lsa, hatto jinoyat darajasidagi tahdid bo'lsa ham, qochoq maqomi avtomatik tarzda taqdim etilmaydi. Bu holat “subsidiar himoya” yo'li bilan hal qilinadi (masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida).

3. O‘z mamlakatidan tashqarida bo‘lish (Outside Own Country)

Konvensiyaga ko‘ra, shaxs faqatgina o‘z mamlakatidan tashqarida bo‘lgan holatda qochoq sifatida tan olinadi. Bu prinsip xalqaro huquqning suverenitet tamoyiliga tayanadi — ya’ni davlat o‘z ichki masalalarini o‘zi hal qiladi, xalqaro jamoatchilik esa faqat tashqariga chiqqan shaxslar bilan shug‘ullanadi.

Shuning uchun, o‘z mamlakati ichida ta’qibdan qochgan shaxslar **ichki ko‘chirilganlar** (IDPs) deb ataladi va ular qochoq maqomini olmaydi. BMT bu guruhga boshqa mexanizmlar orqali yordam beradi (masalan, OCHA yoki UNHCR tomonidan maxsus dasturlar orqali).

Shuningdek, agar bir shaxs bir nechta fuqarolikka ega bo‘lsa, u boshqa fuqaroligiga ega davlatdan himoya qidirgan bo‘lishi zarur. Aks holda, “real alternativ himoya” mavjud bo‘lsa, unga qochoq maqomi berilmaydi.

4. Davlat himoyasining mavjud emasligi (No Protection)

Bu prinsip qochoqlikning klassik huquqiy asosidir. Shaxs ta’qibdan qochib, o‘z davlati yoki uning institutsiyalaridan yordam ololmasa yoki olishni istamasa, u xalqaro miqyosda himoya so‘rashi mumkin.

Ta’qib faqat davlat tomonidan amalga oshirilmasligi mumkin, lekin agar davlat ushbu harakatlarga qarshi hech qanday chora ko‘rmasa, bu ham Konvensiya nuqtai nazaridan qabul qilinadi. Masalan, biror shaxs irqiy zo‘ravonlikka uchrab, mahalliy huquq-tartibot organlari uni himoya qilmasa yoki aksincha, ta’qibchilarning o‘ziga aylanib qolsa, bu holda u “davlat himoyasidan mahrum” deb topiladi.

Bu yerda “himoyaning mavjud emasligi” degani faqat huquqiy himoya emas, balki amaliy, real himoyaning yo‘qligidir. Shaxs o‘z davlatida qonuniy jihatdan himoyaga ega bo‘lishi mumkin, lekin amalda huquqlari ta’minlanmasa, bu maqom unga tatbiq qilinmaydi.

5. Asosli qo‘rquv (Well-Founded Fear)

Qochoqlik maqomining eng nozik va subyektiv elementi bu — asosli qo‘rquvdir. Ushbu prinsip bir vaqtning o‘zida **shaxsning subyektiv hissiyoti** va **mavjud obyektiv shart-sharoitlarni** birlashtiradi.

Qo‘rquv “asosli” deb tan olinishi uchun quyidagilar mavjud bo‘lishi kerak:

- ✓ O‘tmishda ta’qibga uchrash holatlari;
- ✓ Shunga o‘xshash holatlarga duch kelgan boshqalar misollari;
- ✓ Inson huquqlari tashkilotlari, BMT hisobotlari orqali tasdiqlangan xavfli muhit;
- ✓ Shaxsning irqiy, diniy, siyosiy yoki ijtimoiy toifaga mansubligi sababli xavfda bo‘lishi.

Qo‘rquvning isbotlanishi mutlaq dalillarni emas, balki **o‘rtacha oqilona kuzatuvchining ishonchiga sazovor darajada** bo‘lishi kerak. Kanada Oliy Sudi (Pushpanathan v. Canada) bu tamoyilni mustahkamlagan: “Shaxs qo‘rquvni his qilishi yetarli emas, u o‘z qo‘rquvini dalillarga asoslash imkoniga ega bo‘lishi zarur.”

Asosli qo‘rquv gender, yosh yoki jinsiy orientatsiyaga ko‘ra turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, ayollar yoki bolalar o‘z ijtimoiy holatlari sababli alohida qo‘shimcha xavf ostida bo‘lishlari mumkin va bu ularning asosli qo‘rquvini kuchaytiradi.

Qochoqlik maqomini belgilovchi beshta asosiy prinsip — **ta’qib, konvensiyaviy sabablar, o‘z mamlakatidan tashqarida bo‘lish, davlat himoyasining mavjud emasligi va asosli qo‘rquv** — xalqaro boshpana huquqining negizini tashkil qiladi. Ushbu mezonlar 1951-yilgi BMT Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiyasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular xalqaro huquqning muhim elementlari hisoblanadi.

Birinchidan, **ta’qib** — bu shaxsning inson sifatida yashash, erkinlik va xavfsizlik

huquqlarining jiddiy buzilishi shaklidir. U keng doirada talqin qilinib, nafaqat davlat, balki nodavlat subyektlar tomonidan sodir etilgan holatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu tahlil amaliyotda gender asosida, diniy e'tiqod, irqiy ajratish, siyosiy qarashlar asosida ta'qiblar kabi holatlarda keng qo'llanilmoqda.

Ikkinchidan, **konvensiyaviy sabablar** — ta'qibning o'zi yetarli emas, u BMT Konvensiyasida ko'rsatilgan sabablardan biri bilan bevosita bog'liq bo'lishi shart. Bu sabablar qochoq maqomini inson huquqlari va diskriminatsiyaga qarshi kurash tamoyillari bilan bog'laydi. Ayniqsa, "muayyan ijtimoiy guruh" tushunchasining zamonaviy talqinlari ushbu prinsipni doimo kengaytirib bormoqda.

Uchinchidan, **shaxsning o'z mamlakatidan tashqarida bo'lishi** — qochoqlik maqomining huquqiy chegarasini belgilaydi. Bu prinsip davlat suvereniteti tamoyiliga mos holda xalqaro jamoatchilik aralashuvi chegarasini aniqlaydi. Boshpana instituti ichki ko'chirish va xalqaro qochoqlik o'rtasidagi farqni aniq ajratib turadi.

To'rtinchidan, **davlat himoyasining yo'qligi** — qochoqlik institutining asosiy maqsadi — himoya funksiyasini belgilaydi. Shaxs faqat ta'qibga uchragani uchun emas, balki uni himoya qilishga qodir bo'lgan davlatning yo'qligi sababli ham xalqaro himoyani talab qiladi. Bu tamoyil xalqaro mas'uliyatni asoslaydi.

Nihoyat, **asosli qo'rquv** — bu subyektiv va obyektiv mezonlarni birlashtirgan kompleks tamoyildir. U shaxsiy hissiyot bilan real vaziyat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga asoslanadi. Bu qo'rquv shunchaki xavotir emas, balki faktlar, tajriba va ishonchli manbalarga asoslangan bo'lishi lozim. Qo'rquvning asosli ekanligini baholashda insonparvarlik yondashuvi yetakchi rol o'ynaydi.

Umuman olganda, ushbu beshta prinsip xalqaro qochoqlik tizimini tartibga solishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning to'g'ri qo'llanishi nafaqat inson huquqlarini himoya qiladi, balki davlatlararo solidaritet, xalqaro mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillarining amalda ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, bu prinsiplarga tayangan holda xalqaro va milliy boshpana siyosatining rivojlanishi, sud-huquq amaliyoti va qonunchilik asoslarining mustahkamlanishi ta'minlanadi. Shu bois, har bir prinsip nafaqat huquqiy vosita, balki insoniy qadr-qimmatni saqlab qolish yo'lidagi universal mexanizm sifatida qoralishi lozim.

REFERENCES

1. 1951 Convention Relating to the Status of Refugees.
2. 1967 Protocol Relating to the Status of Refugees.
3. <https://www.unhcr.org/sites/default/files/legacy-pdf/5aa290937.pdf> (The refugee concept under international law Global compact for safe, orderly and regular migration (New York, 12-15 March 2018))
4. <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/1536504221997861>
<https://freemovement.org.uk/what-is-the-legal-meaning-of-refugee/>
6. <https://drive.google.com/file/d/1Cy88THc6qq02JiK5yLgYKITHQr12fyPc/view>
Inson huquqlari – DARSLIK. G. Yuldasheva, N. Gafurova:.. Toshkent – 2023
7. <https://global.oup.com/booksites/content/9780199207633/resources/annexe2> G.S. Goodwin-Gill, *The Refugee in International Law*, 3rd edition, 2007)
8. O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyasi. www.lex.uz
9. UNHCR official website: www.unhcr.org.